QON FAQAT DONORLAR KUNIDA EMAS, YIL DAVOMIDA KERAK. O‘ZBEKISTONDA DONORLIK

Mirzajanova Zilola Anvarovna
Babayeva Gulbaxor Abdurasulovna.
Tojiboyeva Dilrabo Solijanovna
Abu Ali ibn sino nomidagi 2- Margilon jamoat salomatligi tibbiyot texnikumi.

Annotasiya: *O‘zbekistonda donorlik qoniga talab juda yuqori, biroq odamlarni qon topshirishdan to‘xtatib turuvchi qo‘rquvlar mavjud.*

Kalit so‘zlar: *Qon quyishga muhtoj bo‘lib qolgan har bir odamning alohida qon guruhi va rezus faktori borligini inobatga olganda, unga faqatgina shu guruh va Rh faktordagi qon quyilishi mumkin.*

Odamlar turli baxtsiz hodisalar natijasida jarohat olib, qon yo‘qotishi va qon quyishga muhtoj bo‘lishi mumkin. Shuningdek, gematologik, onkologik kasalliklar bilan kurashadigan insonlar uchun ham qon, uning tarkibiy qismlari, undan tayyorlanadigan dori preparatlar o‘ta muhim.

Qon quyishga muhtoj bo‘lib qolgan har bir odamning alohida qon guruhi va rezus faktori bor, unga faqatgina shu guruh va Rh faktordagi qon quyilishi mumkin. Donorlar. Lotin tilidan olingan bu so‘zning ma’nosi «hadya qilish» degani.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining tavsiyasiga ko‘ra, aholini qon komponentlari bilan ta’minlash uchun qon topshirishlar soni aholi soniga nisbatan har 1000 kishiga kamida o‘ntani yoki aholi soniga nisbatan 1% ni tashkil etishi kerak. Respublika qon quyish markazining ga taqdim etgan ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda bu ko‘rsatkich 2021 yilda har ming aholiga 6,8 nafar yoki 0,68 foizni tashkil etgan. Ko‘rinib turibdiki, mamlakatdagi donorlik darajasi me’yorida emas.

Qon va uning tarkibiy qismlarni topshirish tartibi to‘g‘risidagi nizomda donorlikka tanlab olish, nomzodni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish, qon va donatsiya uchun talablar, donorlikka qarshi ko‘rsatmalar keltirib o‘tilagi.

Unga ko‘ra, 18 yoshdan 60 yoshgacha bo‘lgan tana vazni 50 kilogrammdan yuqori o‘zini sog‘lom deb bilgan O‘zbekiston fuqarolari donor sifatida qon topshirishi mumkin.

Nisbiy qarshi ko‘rsatmalar

- Igna sanchish, quloq teshtirish (pirsing), tatuirovka, tish ekstraksiyasi, abortlar, ambulator jarrohlikdan keyin olti oydan so‘ng;
- Angina, gripp, O‘RVI kabi tumovli holatlardan tuzalgan paytdan boshlab bir oy o‘tgach;
- Hayz ko‘rish davri tugagandan keyin 5 kun o‘tib;
- Antibiotiklar qabul qilish to‘xtatilganidan keyin ikki hafta o‘tib;

- Tugʻruqdan keyin bir yil va bolani emizish toʻxtatilganidan soʻng uch oydan soʻng;
- Alkogol qabul qilgach 48 soat oʻtgach;
- OIV kasalligini yuqtirgan shaxs bilan oxirgi aloqada boʻlgan kundan keyin 12 oy oʻtib;
- Kovidga qarshi vaksina dozalarini toʻliq olib boʻlgandan soʻng bir oy oʻtgach;
- Kovid bilan ogʻrigan bemorlarda kasallik davri yengil oʻtgan boʻlsa, toʻla tuzalganidan soʻng kamida bir oy, agar ogʻir, turli pnevmatik holatlar bilan oʻtgan boʻlsa, kamida uch oy;
- Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgach, tibbiy koʻrik hamda qonni gematransmissiv infeksiyalar boʻyicha dastlabki tekshirishdan oʻtkazilgandan keyingina donor sifatida qon topshirish mumkin.

Mutloq qarshi koʻrsatmalar

Onkologik, yurak-qon tomir, nafas olish, ovqat hazm qilish organlari, jigar va oʻt yoʻllari, koʻrish organlari kasalliklari, B va C virusli gepatitlari, OIV infeksiyasi, OITS, moxov, brutsellyoz, sil (hamma shakllari), tulyaremiya, zaxm hamda boshqa yuqumli kasalliklar, shuningdek, tana aʼzolari transplantatsiyasi, ruhiy kasalliklar boʻlganda donor sifatida qon topshirish mutlaqo mumkin emas.Donorlik boʻyicha cheklovlar,

tatuirovka, pirsing yoki tish davolashda bir marta ishlatiladigan asbob-uskunalardan foydalanilishi yoki sterillanishidan qatʼi nazar ushbu amaliyotlarni oʻtkazgan insonlar maʼlum vaqt oʻtgachgina qon topshirishlari mumkin. Mutaxassisning taʼkidlashicha, bu ayrim kasalliklarning dastlabki bosqichi yashirin holatda boʻlishi bilan bogʻliq.

Tarkibida biror virus yoki yuqumli kasallik yoʻqligi aniqlangachgina boshqa organizmga quyishga ruxsat beriladi. Ammo shunday kasalliklar borki, organizmda yashab, maʼlum muddat oʻtgach asoratini koʻrsatadi

Shuning uchun ham tanadagi amaliyotlar va yashash tarzidan kelib chiqib qon topshirishda bir necha kunlik, oylik yoki yillik cheklovlar belgilab qoʻyilgan. Kasalliklar yoki biror asoratlar bu davr mobaynida yashirinlik bosqichidan oʻtadi va aniqlashning imkoni boʻladi. Agar hammasi ijobiy boʻlsa, qon topshirish xohishidagi insonlar bemalol donorlik qilishlari mumkin.

.

Qon quyish markaziga Oʻzbekiston fuqarolari — pasport, harbiy xizmatchilar — harbiy hisobga olish hujjatlari (harbiy guvohnoma yoki ofitserning shaxsiy guvohnomasi), chet el fuqarolari va fuqaroligi boʻlmagan shaxslar — Oʻzbekistonda doimiy yashashga ruxsatnoma bilan qabul qilinadi.Hozirda yangi nusxadagi haydovchilik guvohnomasi orqali ham roʻyxatdan oʻtish amalga oshirilmoqda. Donorlik qilmoqchi boʻlganlar yuqoridagi shaxsni tasdiqlovchi hujjatlaridan biri bilan istalgan qon quyish markaziga borib qon topshirishi mumkin.Xulosalar ijobiy boʻlsa, nomzod gemoglobin miqdori, qon guruhi, rezus faktorini aniqlashga yuboriladi. Gemoglobin miqdori ayollarda 120 g/l, erkaklarda 128 g/l dan yuqori boʻlishi kerak. Ushbu talablar ham bajarilganda donor qon topshirishi mumkin.

Qon olish miqdori ham har bir insonning holatidan kelib chiqib belgilanadi. Kamida 350, koʻpida esa 450 millilitr olinadi. Nizomga koʻra, 500 millilitrgacha olish mumkin.

«Bu yerda asosiy me’zon — *og‘irlik* hamda *jins*. Vazni 70 kilogrammdan yengil erkaklar, ayollar (80 kilogrammdan yuqori bo‘lsa ham), birinchi marta qon topshirayotgan va bundan biroz hadiksirayotgan odamlardan ko‘pincha 350 millilitr olamiz. 75 kilogrammli erkaklardan esa 450 millilitr olish boshlanadi».

Olingan qonning IFA va PZR metodli tekshiruvdan o‘tishi

Donordan olingan qonning barcha tekshiruvlardan o‘tishi ikki kunni oladi. Jigar ko‘rsatkichi, qon guruhi, rezus faktori, brutsellyoz natijalari test topshirilgan kunning o‘zida chiqadi. Gepatit B, C, OITS, sifilisga tekshiruv natijalari chiqishi esa ko‘proq vaqt talab etadi. Shuning uchun qon ikki bosqichli tekshiruvdan o‘tadi. Dunyoning ko‘plab mamlakatlarida ishlaydigan bu tizimdan Respublika qon quyish markazida foydalanilayotganiga ko‘p bo‘lmagan — oxirgi olti oylikda yo‘lga qo‘yilgan.

«Birinchi bosqich — IFA (immunoferment tahlil — *tahr.*) metodi. Agar shu tahlilning o‘zida biror kasallik aniqlansa, bu qon yo‘q qilinadi. Toza chiqqan qon esa PZR (polimeraz zanjiri reaksiyalari — *tahr.*) metodida tekshiriladi. Ushbu molekulyar darajadagi tahlildan ham ijobiy natijada o‘tgan qonni quyishga ruxsat beriladi va Qon quyish markazining tayyor mahsulotlari saqlanadigan bo‘limga o‘tkaziladi. U yerdan esa davolash profilaktika muassasalariga berib yuboriladi», — deb tushuntiradi Respublika qon quyish markazi bo‘lim boshlig‘i.

Qondan ikki xil tarkib olinadi: ertirotsitar massa va plazma

Eritrotsitar massani 2–8 gradusli sovutgichda 35 kungacha saqlash mumkin. U muzlashi ham, yuqori haroratda turib qolishi ham mumkin emas. Aks holda, qon yaroqsiz holatga keladi.

Plazma esa muzlatilgan holda har xil sovutgich, muzlatgichlarda uch oydan ikki yilgacha saqlanishi mumkin. Bu harorat bilan bog‘liq jarayon. Odatiy sovutgichlarda minus o‘n sakkiz (-18) gradusda uch oy, minus yigirma beshda (-25) bir yil, minus qirqda (-40) ikki yilgacha saqlash imkoniyati mavjud.

Eritrotsitar massadan avariyalar, tug‘ruq jarayoni, biror tana a’zosi sinishi, yorilishi natijasida bo‘ladigan qon yo‘qotishlarda, plazmadan esa qon ketishlarda gematologik kasalliklar, dori-darmonlar tayyorlashda foydalaniladi.Plazma uchun vazni belgilangan me’yordan (60 kilogramm) og‘ir, immuniteti kuchli donorlar tanlab olinadi.O‘zbekistonda donorlar va qonga muhtoj insonlarni tez bog‘lash uchun yordam beruvchi «Donortop.uz» loyihasi mfvjud.

«Qon va uning tarkibiy qismlaridan foydalanish to‘g‘risidagi» nizomda donorlar pulli va beg‘araz bo‘lishi aytilgan. Respublika qon quyish markazida pullik tizimdan asosan plazma donorlari uchun foydalaniladi.. 2014 yildan buyon hayoti davomida to‘liq 40 marta qon yoki 60 marta qonning bir elementini topshirgan insonlarga «O‘zbekiston Respublikasi faxriy donori» ko‘krak nishoni ta’sis etilgan.

Eritrotsitar massani 2–8 gradusli sovutgichda 35 kungacha saqlash mumkin. U muzlashi ham, yuqori haroratda turib qolishi ham mumkin emas. Aks holda, qon yaroqsiz holatga keladi.

Plazma esa muzlatilgan holda har xil sovutgich, muzlatgichlarda uch oydan ikki yilgacha saqlanishi mumkin. Bu harorat bilan bog‘liq jarayon. Odatiy sovutgichlarda minus o‘n sakkiz (-18) gradusda uch oy, minus yigirma beshda (-25) bir yil, minus qirqda (-40) ikki yilgacha saqlash imkoniyati mavjud.

Eritrotsitar massadan avariyalar, tug‘ruq jarayoni, biror tana a’zosi sinishi, yorilishi natijasida bo‘ladigan qon yo‘qotishlarda, plazmadan esa qon ketishlarda gematologik kasalliklar, dori-darmonlar tayyorlashda foydalaniladi.Plazma uchun vazni belgilangan me’yordan (60 kilogramm) og‘ir, immuniteti kuchli donorlar tanlab olinadi.

Respublika qon quyish markazi mutaxassisining aniqlik kiritishicha, yaroqsizlangan yoki biror kasallik sabab quyishga ruxsat berilmagan qon gipoxloritda zararsizlantirib, so‘ng kanalizatsiyaga tashlanadi.

Mutaxassis ko‘rsatmasiga ko‘ra, qon topshirishni rejalashtirgan inson ertalab yengil nonushta qilib olishi, ko‘proq suyuqliklar ichishi kerak. Shunda ham achchiq, sho‘r, yog‘li, sutli narsalar yeyish mumkin emas. Sababi ular qonga so‘rilib, qonning sifati buzilishiga olib kelishi mumkin. Qon topshirishdan bir kun oldin ham yuqoridagi mahsulotlarni iste’mol qilmaslik, ikki kun oldin spirtli ichimliklar ichmaslik tavsiya etiladi.

Qolaversa, bir kun oldin tiniqib uxlash kerak. Tungi navbatchiliklar, uxlamasdan kino ko‘rish, o‘yin o‘ynash va boshqa mashg‘ulotlar bilan organizm dam olmaydi va toliqadi. Bunday paytda qon olish donorning xushdan ketishi, qattiq holsizlanishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Yozning issiq kunlarida Respublika Qon quyish markazida qabul ertalabki 8:00 dan tushdan keyingi 14:00—15:00 largacha davom etadi. Negaki, kunning qizigan paytida donorlar ter bilan organizmidagi suvni ko‘p chiqarishadi. Qo‘shimchasiga ulardan 350 yoki 450 millilitrli qon olinsa, qiynalib qolishlari mumkin. Shuning uchun harorat yuqori bo‘lgan kunlarda qancha erta kelishsa, shuncha yaxshi. Me’yorlashgan paytlarda esa 17:00 gacha davom ettirishadi.

Qon topshirgandan keyin donorlarga besh daqiqacha o‘rinlaridan turmay yotishlari tavsiya etiladi. Qachonki, o‘zlarini yaxshi his eta boshlashsa, turib ketishlari mumkin.

O‘zbekistonda donorlar va qonga muhtoj insonlarni tez bog‘lash uchun yordam beruvchi «Donortop.uz» loyihasi mfvjud.

«Qon va uning tarkibiy qismlaridan foydalanish to‘g‘risidagi» nizomda donorlar pulli va beg‘araz bo‘lishi aytilgan. Respublika qon quyish markazida pullik tizimdan asosan plazma donorlari uchun foydalaniladi.. 2014 yildan buyon hayoti davomida to‘liq 40 marta qon yoki 60 marta qonning bir elementini topshirgan insonlarga «O‘zbekiston Respublikasi faxriy donori» ko‘krak nishoni ta’sis etilgan.